

## ONLAYN TA’LIM JARAYONIDA MOTIVATSIYANING O‘RNI VA O‘QUVCHILARGA UNING TA’SIRI

Xudoyberdiyeva Feruza Elmurod qizi  
Jizzax davlat pedagogika universiteti  
Pedagogika yo’nalishi magistranti  
Gmail:xudoyberdiyevaf@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19453242>

**Annotatsiya.** Ushbu tezisdan onlayn ta’lim jarayonida motivatsiyaning ahamiyati, uning o‘quvchilarning bilim olish faoliyatiga ta’siri hamda ta’lim samaradorligini oshirishdagi o‘rni haqida yoritilgan. Onlayn ta’lim sharoitida o‘quvchilarning mustaqil o‘rganish jarayoni kuchaygani sababli "motivatsiya" bu jarayonda muhim omil hisoblanadi. Tadqiqot jarayonida motivatsiya o‘quvchilarning qiziqishi, faolligi va bilimlarni o‘zlashtirish darajasiga ta’siri ham tahlil qilinadi. Shuningdek, o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirishga xizmat qiladigan zamonaviy pedagogik usullar va texnologiyalar haqida ham so‘z yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** onlayn ta’lim, motivatsiya, o‘quvchilar faolligi, ta’lim samaradorligi, pedagogik texnologiyalar, mustaqil ta’lim.

**Аннотация.** В данной диссертации рассматривается важность мотивации в процессе онлайн-обучения, ее влияние на учебную деятельность студентов и ее роль в повышении эффективности образования. Поскольку в онлайн-обучении повышается самостоятельность студентов в процессе обучения, «мотивация» является важным фактором в этом процессе. В исследовании также анализируется влияние мотивации на интерес, активность и уровень усвоения знаний у учащихся. Кроме того, рассматриваются современные педагогические методы и технологии, способствующие повышению мотивации учащихся.

**Ключевые слова:** онлайн-образование, мотивация, вовлеченность студентов, эффективность образования, педагогические технологии, самостоятельное обучение.

**Abstract.** This thesis discusses the importance of motivation in the online learning process, its impact on students' learning activities, and its role in improving educational effectiveness. Since students' independent learning process is enhanced in online learning, "motivation" is an important factor in this process. The research also analyzes the impact of motivation on students' interest, activity, and level of knowledge acquisition. It also discusses modern pedagogical methods and technologies that serve to increase student motivation.

**Keywords:** online education, motivation, student engagement, educational effectiveness, pedagogical technologies, independent learning.

### KIRISH

Hozirgi kunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi bilan birgalikda ta’lim tizimida ham katta o‘zgarishlarni yuzaga keltirdi. Xususan, onlayn ta’lim shakli (masofaviy ta’lim) O‘zbekistonda pandimiya davrida keng tarqalib, o‘quvchilarga masofadan turib bilim olish imkoniyatini yaratdi. Onlayn ta’lim jarayoni an’anaviy ta’limdan farq qilib, o‘quvchilarning mustaqil o‘rganishi, o‘z ustida ishlashi, o‘zini nazorat qilishi va faol ishtirokini talab qiladi. Shu sababli bu jarayonda motivatsiya tushunchasi muhim ahamiyat kasb etadi.

Motivatsiya bu o‘quvchi va talabalarning bilim olishga bo‘lgan qiziqishi, intilishi va faolligini oshiruvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Agar o‘quvchilarda yetarli darajada motivatsiyaga ega bo‘lsa, ular onlayn darslarda faol qatnashadi, topshiriqlarni mas’uliyat bilan bajaradi va

bilimlarni samarali o’zlashtiradi, darsga bo’lgan qiziqishi yanada ortadi, Aksincha, motivatsiyaning yetishmasligi ya’ni yetarli darajada bo’lmashligi ta’lim jarayonining samaradorligini pasaytirishi mumkin. Bugungi kunda uzluksiz ta’lim tizimining barcha bosqichlarida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanilmoqda. Buning natijasida onlayn ta’lim shakli ta’lim jarayonining muhim qismiga aylanib bormoqda. Onlayn ta’lim o’quvchilarga vaqt va masofadan qat’i nazar bilim olish imkonini yaratadi. Biroq bu jarayon biroz murakkab bo’lishi mumkin, ammo, o’quvchilarning faolligi, qiziqishi va bilimlarni o’zlashtirish darajasi ko’p jihatdan ularning motivatsiyasiga bog’liq hisoblanadi.

### **O’quvchilarga motivatsiyaning ta’siri (ijobiy va salbiy tomonlari)**

#### **Ijobiy jihatlari(yuqori motivatsiya bo’lganda):**

O’quv natijalari yaxshilanadi (baholar, bilim sifati, topshiriqlar to’liq bajarilishi).

Mustaqil o’rganish ko’nikmalari kuchayadi (self-regulation, vaqtni boshqarish, o’z ustida ishlash ko’nikmasi shakllanadi).

Chuqur o’rganish (deep learning) va kreativlik oshadi(yangi g’oyalar).

O’ziga bo’lgan ishonch va self-efficacy (o’z qobiliyatiga ishonish) shakllanadi.

#### **Salbiy ta’sirlar (motivatsiya past bo’lganda):**

Passivlik, procrastinatsiya (darslarni keyinga qoldirish) kuchayadi.

Stress va tashvish yuzaga kelishi mumkin(ayniqsa pandemiya davrida).

O’quv natijalari pasayadi, bilim sifati yomonlashadi. Sababi o’qituvchi va o’quvchi yuzma-yuz muloqot qila olishmaydi.

Ijtimoiy izolyatsiya va yolg’izlik hissi kuchayishi mumkin.

### **XULOSA**

Xulosa qilib aytganda, onlayn ta’lim jarayonida motivatsiya o’quvchilarning bilim olish faoliyatini samarali tashkil etishda muhim omillardan biri hisoblanadi. Motivatsiya o’quvchilarning darslarga bo’lgan qiziqishini oshiradi, ularni faol ishtirok etishga undaydi va bilimlarni chuqurroq o’zlashtirishga yordam beradi. Ayniqsa, onlayn ta’limda o’quvchilar ko’proq mustaqil ishlashi sababli ularning ichki motivatsiyasi ta’lim jarayonining muvaffaqiyatli kechishida katta ahamiyatga ega.

Motivatsiyasi yuqori bo’lgan o’quvchilar dars jarayonida faol bo’ladi, berilgan topshiriqlarni mas’uliyat bilan bajaradi va yangi bilimlarni o’rganishga intiladi. Aksincha, motivatsiya yetarli bo’lmagan holatlarda o’quvchilarning darslarga qiziqishi pasayadi, natijada ta’lim samaradorligi ham kamayishi mumkin. Shuning uchun o’qituvchilar onlayn ta’lim jarayonida o’quvchilarning qiziqishini oshirishga alohida e’tibor berishlari va shu bilan birgalikda, o’qituvchi har bir o’quvchi bilan individual tarzda ishlashi zarur.

O’quvchilarning motivatsiyasini oshirish uchun interaktiv metodlar, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, multimedia vositalari hamda qiziqarli va ijodiy topshiriqlardan foydalanish muhimdir. Bundan tashqari, o’qituvchining qo’llab-quvvatlashi, rag’batlantirish va ijobiy muhit yaratishi ham o’quvchilarning ta’limga bo’lgan munosabatini yaxshilaydi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati**

1. <https://kitobxon.com/oz/kitob/yuksak-manaviyat-engilmas-kuch>
2. “Motivation: State, Trait, or Both”, Motivation, Effort, and the Neural Network Model, 2020
3. “Motivation: an overview”, Encyclopedia of Psychology. American Psychological Association, 2000.
4. “Motivation and Motivation Theory”, Encyclopedia of Management.
5. Xolliqov A. – Pedagogika nazariyasi va tarixi. Toshkent